



## BLUEPRINT FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (ELLS) SUCCESS

Nyu York Shtat Ta'lim Vazirligining ikki tilli ta'lim bo'limi (Office of Bilingual Education) va chet til bo'limi (Foreign Language Studies) jiddiy vazifasi hamma Nyu York Shtat o'quvchilari, ingliz tilini o'rganib o'tirgan o'quvchilarni ("English Language Learners") e'tiborga olib, yuqori darajadagi ta'lim samarasiga va tilni puhta ("language proficiency") organishni kafolatlaydi. Biz hamma o'quvchilarni institute va kasb tayyorgarligiga qaratish uchun ularning shaxsiy ta'lim yonalishlari va ijtimoiy-hayotiy ehtiyojlari turli tillarda bo'lishini ta'minlaymiz. Nyu York Shtat Ta'lim Vazirligi hamma o'qituvchilar ingliz tilini o'rganib o'tirgan o'quvchilarning o'qituvchilari deb tasdiqlaydi.

Jahon iqtisodi o'zgarishlariga javoban, Nyu York Shtat Ta'lim Vazirligi Common Core Ta'lim Standartlarini ("Common Core Learning Standards") amalga oshirdi. Ushbu standartlar o'quvchilarga, o'qituvchilarga va ota-onalarga institute va kasb tayyorgarligi natijalarini tasdiqlaydi. Ohirgi 10 yil ichida, ingliz tilini o'rganib o'tirgan Nyu York Shtat o'quvchilarning soni 214,378 mingga teng va ular 160 dan ko'p tillarda gaplashadi. Ushbu o'quvchilar samarali bo'lishlari uchun, Nyu York Shtat Ta'lim Vazirligi maktablarni zarur bo'lgan uslubiy materiallar va uyda faoydalaniladigan tilni aniqlash testi ("home language assessment") bilan ta'minlaydi. O'qituvchilar ushbu resurslardan foydalanib o'quvchilarni yuqori standartlarga etishga yordam beradilar. Ta'limning maxsus vakili 154-chi qoida asosida, Ikki tilli ta'lim bo'limi va chet til bo'limi ingliz tilini o'rganib o'tirgan o'quvchilarning ta'lim samaralarini oshirish ularni til muhtiga yordamsiz kiritish yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Nyu York Shtat Ta'lim Vazirligining P-12 Common Core Ta'lim Standartlari har bir o'qituvchidan hamma o'quvchilarga akademik tilni va matnlar mazmunini o'rgatishni talab etishadi. Ingliz tilini samarali o'rganish uchun hamma o'qituvchilar ingliz tilini o'rganib o'tirgan o'quvchilarga qanday yordam berishni bilishlari lozim. Barcha fan o'qituvchilari o'quvchilar Common Core Ta'lim Standartlarini egallashlarini ta'minlaydi.

Keyingi qonun-qoidalar ingliz tilini o'rganib o'tirgan o'quvchilar birinchi sinflardan boshlab samarali bo'lishlari uchun amalga oshirildi. Ushbu qonun-qoidalar tumanlar, maktablar, va o'qituvchilar uchun yo'llanma va resurs negizida mo'ljallangan. Shu bilan birga, Ikki tilli ta'limni (Bilingual Education), Ingliz tili ikkinchi tilni (English as a Second language) va chet tillarni (Foreign Language Studies) yaxshiroq tushunishga va kad'rlashga e'tibor beriladi.



## BLUEPRINT FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (ELLS) SUCCESS

**Ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilar rejasining asosiy qonun-qoidalarini keyingi xolatlariga qaratilgan:**

**1. Hamma o'qituvchilar ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilar o'qituvchilari va shunga asosan darslarini rejalashtirishlari lozim:**

- O'qitish uslublari madaniyatli va tilshunosli bo'lib ular **hamma** o'qituvchilar uchun hamda shaxsiy ta'lim o'qish yonalishlar bilan ("Individualized Educational Programs") nogiron o'qituvchilarni e'tiborga olib moslashtirilsin.
- Ingliz tili, ikki tilli va boshqa fanlar o'qituvchilari hamkorlikda ishlab o'qituvchilar hamma fanlardan samarali bo'lishlari uchun tilni o'rganish jarayonini rivojlantirishda bosqichma-bosqich ta'lim usullari ("language-focused scaffolds") qo'llanilsin.
- Tilshunos, yosh/bosqich va Common Core Ta'lim Standartlariga mos kelgan materiallar va o'qitish resurslaridan foydalanilsin.
- Maktab xodimlari va insonparvar jamoalar bilan hamkorlikda ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilarning ehtiyojlarini mukammallashtirishga qaratilsin.

**2. Hamma maktab kengashlari va tuman/maktab rahbarlari ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilarnig ilmiy,tilshunos,ijtimoiy va hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida:**

- Ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilarga yuqori ta'lim natijalarni va ijtimoiy hayotni rivojlanishini belgilab ular uchun institut va kasb tayyorgarlik sifatli o'quv dasturlarni ishlab chiqadi va ta'minlaydi.
- Ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilarga sifatli bilimni ta'minlaydi.
- O'quv rejasini amal qilishi uchun ma'muriyat va fiskal organlari nazorat qiladi .
- O'qituvchilarning pedagogik tajribasini yaxshilash uchun sifatli uslubiy yordam, tavsiyalar va yo'lliknomalar ta'minlanadi.
- Hamma o'qituvchilarning tillarini va madaniyatlarini e'tiborga olib ular uchun xavfsiz sharoitlar yaratiladi.
- Tumanlar va maktab rahbarlari ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilar maktab madaniyatining yuqori natijalariga yetishlari uchun mashq qilishlari lozim.
- Ingliz tilini o'rganib o'tiruvchilarning shaxsiy ta'lim o'qish yonalishlar ("Individualized Educationa Program") bo'yicha ularga sifatli o'qish va yordam xizmatlarini ta'minlaydi.



## BLUEPRINT FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (ELLS) SUCCESS

- 3. Tumanlar va maktablar hamma ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarni e'tiborga olib ulargning bosqichlariga mos, akademik , va Nyu York Shtat Prekindergarten Foundation Common Core va P-12 Common Core Ta'lim Standartlariga binoan o'qitish uslublarini ta'minlaydi:**
- Aniq fan va til maqsadlarini bildiradi.
  - So'z boyligini oshirish va integratsiyalashuvi joriy etish.
  - O'quvchilar sinfdoshalar bilan muhokama qilish imkoniyatlari yaratiladi.
  - O'qitish usullari multimedia, rasmlarni va grafiklarni kiritishi lozim.
  - Nogiron ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarning ehtiyojlarini e'tiborga olib ular uchun shaxsiy ta'lim yordamlarni va shaxsiy o'quv rejalarni moslashadi.
  - New York Shtat Prekindergarten Foundation for the Common Core Progressions e'tiborga olib ingliz tilini erta o'rganayotgan o'quvchilar ("Early Learnig ELLs") uchun sifatli o'quv rejalarni yaratib kiritilsin. [http://www.p12.nysed.gov/ciai/common\\_core\\_standards/pdfdocs/nyslsprek.pdf](http://www.p12.nysed.gov/ciai/common_core_standards/pdfdocs/nyslsprek.pdf).
  - New York Shtat ikki tilli Common Core Progressions ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarning akademik tilini va fanlar bilimlarini oshirish uchun ta'minlangan [http://www.engageny.org/resources/new-york-state-bilingual-common-core initiative](http://www.engageny.org/resources/new-york-state-bilingual-common-core_initiative)
- 4. Tumanlar va maktablar ikki tillik("bilingualism) va ikki til savodxonlikni (biliteracy) e'tiborga olib maktab bitiruvchilari maktabni ikki til savodxonlik mukofoti ("Seal of Biliteracy) bilan bitirish imkoniyatlarni yaratish maqsadida:**
- O'quvchilar til bilimlarini oshirish uchun til bilimini oshish dasturga ("language support programs") qatnashish imkoniyatlari bo'ladi.
  - Akademik tilni ingliz, uyda so'zlashgan va boshqa tillar orqali o'rganish va mustahkamlash imkoniyatlari bo'ladi.
  - Ikki tilli ta'lim dasturlari ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun ularning uyda so'zlashgan tillarini va ingliz tilini bir safarda rivojlantishga imkoniyat beradi.
  - Ikki tilli dasturlar mavjud bo'lmagan tumanlarda o'quvchilar uchun boshqa dasturlarni ta'minlaydi.



## BLUEPRINT FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (ELLS) SUCCESS

### 5. Tumanlar va maktablar ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilarning ota-onalarini va oilalarini qadrlab farzandlarining ta'lim olishlariga qatnashish maqsadida :

- Ota-onalar uchun farzandlarning ta'limi bo'yicha foydali resurslarni ta'minlaydi.
- Ota-onalarga tushunarli tilda ularning huquqlari va farzandlarining tanlab olgan dasturlar to'g'risida ma'lumotlar ta'minlanadi.
- Ota-onalarga o'qitish jarayonida ko'nikmalarni ingliz va boshqa tillarda hosil qilib ular farzandlarining ta'lim olishiga yordam berishlari mumkin bo'ladi.
- Ota-onalar maktab hayotiga qatnashishni e'tiborga oladi.
- Ota-onalar va oila a'zolar bilan ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilardan qanday natijalar kutilishni va ularga qanday etishni izohlaydi.
- Maktab xodimlari va immigrant jamoatlari hamkorlikda ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilarning oilalariga yordam beradi.

### 6. Tumanlar va maktablar ikki tili, ingliz tili ikkinchi til va chet tillar o'qituvchilarning va maktab xodimlarning malakalarini oshirish maqsadida:

- Hamma o'qituvchilar bilimga o'quv rejalarni moslashtirish, o'quvchilarning topshiriqlarini tadqiq qilish va dars rejalarni amalga oshirish uchun imkoniylar yaratilgan bo'ladi.
- Malakani oshirish kurslar orqali hamma o'qituvchilar ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilarning ehtiyojlarini hamda uyda soz'lashgan tilni va yangi tilni rivojlantirish negizida qatnashadi.

### 7. Tumanlar va maktablar jamoalari ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilarning uy tillarini, madaniyat meroslarini va avvalgi bilimlarini e'tiborga olib:

- Uyda soz'lashgan tillarni ulanish holda ishlatib o'quvchilarning avvalgi va yangi bilimlarni rivojlantirish va shu jarayonda fanlar tushunarli bo'lishini mo'ljallaydi.
- Nyu York Shtatning iyul 2013 yil "Dignity for All Students Act" tashabussiga kura, ingliz tilini o'rganib o'tgan o'quvchilarning uyda soz'lashgan tillarini va madaniyatlarini ko'tarish jarayonida foydalansin. <http://www.p12.nysed.gov/dignityact/>.



## BLUEPRINT FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (ELLS) SUCCESS

### 8. Tumanlar va maktablar diagnostic asboblardan va sinfda o'quvchilarning bilimini baholash usullaridan ("formative assessment") foydalanib ingliz tilini o'rganitotgan o'quvchilarning ma'rifat miqdorlarini hamda yangi va uyda sozlashgan tilni takomillash maqsadida:

- Shtat testlari va sinfda o'quvchilarning bilimini baholash usullari qo'llanadi.
- Shtatning til bilimini egallash testlar orqali (Nyu York Shtat ingliz tilli Ikkinchi til testi [NYSESLAT] va Nyu York Shtat ingliz tilini o'rganitotgan o'quvchilarni aniqlash testi [NYSITELL]) ingliz tilini o'rganitotgan o'quvchilarning til bilimini rivojlantish harakatida ular uchun zarur bo'lgan ta'minlaydi.
- Chuqur-bilimli testlar orqali asl va boy so'zlardan foydalanishni taqdirlaydi.
- Mos asboblardan foydalanib ingliz tilini o'rganitotgan nogiron o'quvchilarning yuksalishini va ehtiyojlarini aniqlaydi.
- Tahliy rubrikalarni qo'llab ma'rifat miqdorlarini va til bilimini rivojlanishi negizida mulohazalarni bildiradi.
- Uyda so'zlashgan til testlaridan va ikki tilni o'rganish ta'lim dasturlaridan foydalanib o'quvchilarning progreslarini takomillaydi.